

4-dars

Darsning mavzusi: Matn haqida (10 – 12-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarning matn, gap haqidagi bilim va ko'nikmalari, kim?, nima? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlarni ajratishga oid malakalarini rivojlantirish; gaplarni o'zaro mazmunan bog'lagan holda matn tuza olish, ijodiy hikoya yarata olishga o'rgatish, rasmi hikoya ustida ishlash va o'quvchilarda mustaqil rasmi hikoya tuzish ko'nikmasini shakllantirish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni hayvonot dunyosini asrab-avaylashga o'rgatish; o'quvchilarni bajarilayotgan mashqning maqsadini tushunishga o'rganish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish, o'rtoqlariga yordam berish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: mashq matnlari orqali o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish; mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: bilimlarni shakllantiruvchi; o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi.

Darsning metodi: suhbat, analiz, ko'rgazmalilik, mustaqil ish metodi.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: *Qushlar – bizning do'stimiz*

O'tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish. Uyga berilgan mashq o'qitiladi. Uy vazifasi tekshirilayotganda doim o'quvchilarga *“Qaysi so'zda yoki shu so'zning qayerida imloviy xatolikka yo'l qo'yish mumkin?”* degan savol berish hamda o'sha so'zning imlosi ustida ishlash lozim. Shuningdek, jumalardagi mazmuniy xatoliklarni to'g'rilash, matniy kamchiliklar ustida ishlashga o'rgatish lozim.

III. Yangi mavzu bayoni:

O'tilgan dars mavzusi mustahkamlanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

10-mashq o'quvchilarga bajartiriladi. Bunda o'quvchilar bilan birgalikda rasmi hikoya ustida ishlanadi. Matn o'quvchilar tomonidan qayta hikoya qilinadi.

Hikoyadagi *Kim?* yoki *Nima?* so'rog'iga javob beruvchi so'zlar daftarga ko'chirib yoziladi.

Masalan,

Kim? Malika, dadasi, onasi ...

Nima? Maktab, sumka, daftar, kitob ...

Shundan so'ng o'quvchilarga 11-mashqni bajarishi kerakli ta'kidlanadi.

Siz ham "Hayvonot bog'ida" mavzusida o'z hikoyangizni tuzing.

Bu topshiriq o'quvchilardan avvalgi o'zlashtirilgan bilimni ko'nikmaga aylantirishni talab etadi. O'quvchilar ixtiyoriy ravishda rasmi hikoya ham tuzishlari mumkin.

Tuzilgan hikoyadagi so'zlar so'z turkumlarini mustahkamlash nuqtayi nazaridan *Kim?*, *Nima?*, *Qanday?* va *Nima qildi?* So'roqlariga javob bo'luvchi guruhlariga ajratilgan holda ko'chirib yozilishi talab qilinadi.

So'ngra o'quvchilar guruhga bo'linadi va 12-mashq bajariladi. Bunda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi.

Qushlar, rangli, sog'lom, suv, bolalar, topshiriq so'zlari kartochkalarga yozilib, stolga teskari qilib qo'yiladi. Guruh sardorlari tarqatmalarni olib, berilgan har bir so'zga gaplar tuzdiriladi.

Masalan, *Issiqsevar qushlar qish kelishi bilan issiq o'lkalarga uchib ketadilar.*

Bilimingizni tekshiring! O'quvchilarni bilimlarini tekshirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi.

- *Darsda nimalar haqidagi bilimlarimizni yodga tushirdik?*
- *Gap qanday fikrni bildiradi?*
- *Gap nimalardan tuziladi?*
- *Gapda so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?*
- *Gapning chegarasini qanday aniqlaysiz?*
- *Odam o'zaro nimalar yordamida fikrlarini bir-biriga aytadi?*
- *Bu darsda nimalar haqidagi gaplarni o'qidik?*

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

13-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOP ETISH UCHUN EMAS!